

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AZIMOV AKMAL XXX

**UNIVERSAL YONILG'I TA'MINOT TIZIMLI GAZ BALLONLI YENGIL
AVTOMOBILLARNING EKSPLUATATSION KO'RSATKICHLARINI
OSHIRISH**

05.08.06- G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Abstract contents of dissertation of doctor of philosophy (PhD)
in technical sciences**

Azimov Akmal XXX

Universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarning
ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish..... 3

АЗИМОВ АКМАЛ XXX

Повышение эксплуатационных показателей легковых газобаллонных
автомобилей с универсальной системой топливоподачи..... 25

Azimov Akmal XXX

Improving the performance of light gas-powered vehicles with a universal
fuel supply system 48

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 52

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.15/31.08.2022.T.73.03. RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AZIMOV AKMAL XXX

**UNIVERSAL YONILG'I TA'MINOT TIZIMLI GAZ BALLONLI YENGIL
AVTOMOBILLARNING EKSPLUATATSION KO'RSATKICHLARINI
OSHIRISH**

05.08.06- G'ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.1PhD/T5464 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Axmatjanov Ravshanjon Nematjonovich**
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Xalmuxamedov Aziz Suratovich**
texnika fanlari doktori, dotsent

Ro'zimov Sanjar Komilovich
texnika fanlari doktori (DSc.), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.08.2022.T.73.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh, Temirchi ko'chasi, 53-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'lhilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01, faks: (99871) 293-57-54 e-mail: rectorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Riskulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

K.Z.Ziyaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, (PhD), dotsent

A.A.Muxitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha transport sohalarda energiya resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, an'anaviy neft yonilg'ilariga muqobil yonilg'ilardan foydalanish hamda energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash orqali transport vositalarining energiya tejamkorligi, ekologik xavfsizligini oshirish ko'rsatkichlariga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirda rivojlangan xorijiy davlatlarda transport vositalarining energiya tejamkorligini oshirish, ekologik xavfsizligini ta'minlash va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishda, muqobil yonilg'ilarda ishlovchi, energiya tejamkor gaz ballon uskunalari bilan jihozlangan gaz ballonli avtomobillardan foydalanish bilan avtotransport vositalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan masalalar yetakchi o'rinni egallagan. Bu borada, jumladan, gaz ballonli avtomobillarni past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida, sovuq ishga turishirishdagi yonilg'i tejamkorligini oshirish, ekologik xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda avtomobillar ekspluatatsiyasida yonilg'i xarajatlari va zararli gazlar miqdorini kamaytirish orqali ularning foydaliligini hamda ekologik xavfsizligini oshirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda, jumladan, avtomobillarda gaz ballon uskunalari o'rnatish usullarini takomillashtirish, ularni ekspluatatsiya qilishda ekspluatatsiya sharoitini hisobga ish samaradorligini oshirish hamda dvigatelning elektron boshqaruv bloklariga o'rnatiladigan dasturiy ta'minotlarni yonilg'i turlarining o'zgarishiga moslashuvini yaxshilash orqali ekspluatatsion ko'rsatkichlarni oshirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida gaz ballonli avtomobillarning sovuq ishga tushirish jarayonidagi benzinda ishga tushirilib gaz yonilg'isiga o'tishini ratsional tanlash kabi masalalar dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda avtotransport vositalarining energiya tejamkorligini oshirish va ekologik xavfsizligini yanada yaxshilashda gaz ballonli avtomobillar ekspluatatsiyasini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi, shu maqsadda avtotransport vositalarida gaz ballon uskunalari o'rnatish, sozlash va qayta jihozlashda ularning energiya tejamkorligi, ekologik xavfsizlik ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan keng qamrovli rejali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni, transport tizimlarining ekologik va energiya xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan, sohadagi olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni rag'batlantiruvchi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi yaqqol ko'rsatib turibdi. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "...iqtisodiyot tarmoqlari kesimida ishlab chiqarishni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish natijasida energiya resurslarini tejashni nazarda tutuvchi texnik chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish..."¹ bo'yicha vazifalari alohida belgilab berilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Mazkur vazifalarni bajarishda hamda gaz ballonli avtomobillar ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun transport sektorida yonilg'i tejamkor texnologiyalarni qo'llash, zararli chiqindi gaz va zarrachalarni kamaytirish bo'yicha samarali va tezkor ishlar amalga oshirilish bugungi kunda eng zaruriy hamda dolzarb ishlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi «Iqtisodiy va ijtimoiy tarmoqlarning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha jadal chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4422-sonli va 2019-yil 4-oktabrdagi "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4477-son qarori va 2023-yildagi 31-may "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-171 sonli qarori shuningdek ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III "Energetika, energiya va resurslarni tejash, transport, mashina va priborsozlik" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlar tomonidan gaz ballonli avtomobil dvigatellarining turli ekspluatatsiya sharoitlarida foydalanish samaradorligini tadqiq etish masalalari o'rganilgan, jumladan Sonia Yeh, Zisimos Toumasatos, Zissis Samaras, Ping Sun, Zongyan Lv, Lin Wu va boshqalar siqilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz ballonli avtomobillarni ishlatish muammolari ustida tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlaridan V.I.Eroxov, V.A. Shishkov, Y.V. Panov, A.S. Xachiyani, V.V. Biryuk, S.V. Falaleyev, A. Kapustin, I.A. Anisimov, A.S. Ivanov, Ye.M. Chikishev, K.A. Bushtuyeva, Y.I. Bokserman, Y.S. Mkrtichan, K.Y. Chirikov, B.B. Kopitov, O.V. Litvinova, V.A. Lixanov, N.V. Sergeyev, V.P. Shokolov, L.G. Reznik, N.G. Pevnev, V.I. Pashkov, Ye.A. Zaxarov, I.M. Shuvabva va boshqalar gaz ballonli avtomobillar energiya samaradorligi va ekologik xavfsizligini oshirish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.A. Mutalibov, A.U. Salimov, B.I. Bazarov, S.M. Qodirov, Sh.J. Imomov, S.A. Kalaulov, A.X. Vasidov va boshqalar tomonidan gaz ballonli avtomobillarni ekspluatatsiya qilish, ekspluatatsion ko'rsatkichlarini tahlil qilish, uni oshirish va ularning ekologiyaga ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan olimlarimizning ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, dvigatelni sovuq ishga tushirish jarayonidagi benzin-gaz boshqaruvini optimallashtirish va ekspluatatsiya sharoitiga ko'ra gaz ballon uskunalari dasturiy sozlamalarini rostdash bilan universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish usullari yoritilmaganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi PQ-436-son qaroriga asosan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash DASTURI asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi universal yonilg'ich ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarning yonilg'ich tejamkorlik va ekologik ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

universal yonilg'ich ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarining ish jarayonlarini tahlil qilish hamda uning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish;

universal yonilg'ich ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarning "benzin-gaz/gaz-benzin" boshqaruvni ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishga ta'sirini eksperimental tadqiq etish va shunga muvofiq ularning ratsional rostdash algoritmini takomillashtirish;

gaz ballonli yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishda "benzin-gaz/gaz-benzin" boshqaruvining ta'sirini statistik tahlil etish va benzin sarfiga mos siqilgan tabiiy gaz hamda undan chiqadigan zararli gazlar miqdorini aniqlash formulalarini takomillashtirish;

past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlarini inobatga olgan holda universal yonilg'ich ta'minot tizimli gaz ballonli avtomobil dvigatellarining "benzin-gaz"/"gaz-benzin" boshqaruvini ratsional sozlangandagi energoekologik samaradorlikni baholash usulini takomillashtirish;

yonilg'ich ta'minot tizimidagi "benzin-gaz"/"gaz-benzin" boshqaruvini bazaviy va ratsional sozlangandagi dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi benzinning sarflanish vaqtini, tashqi muhit haroratini inobatga olgan holda ekspluatatsion va stend sinov usullari yordamida aniqlash hamda ularni ratsional rostdash bilan ekspluatatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida universal yonilg'ich ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobili olingan.

Tadqiqot predmetini gaz ballonli universal yonilg'ich ta'minlash tizimiga ega yengil avtomobillarning yonilg'ich tejamkorlik va ekologik ekspluatatsion ko'rsatkichlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, eksperimental tadqiqot, solishtirma tahlil, grafoanalitik usul, matematik modellashtirish, statistik tahlil, tadqiqot ishi sinovlarida standart va xususiy usullari hamda avtomobillarni energiya samaradorligi va ular chiqaradigan zaharli moddalar miqdorini eksperimental o'rganish uchun normativ hujjatlarga muvofiq maxsus asboblardan foydalangan holda ekspluatatsion va stend sinov usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlarini hisobga olgan holda

ekspluatatsion va stend sinov usullari asosida “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvining algoritmi takomillashtirilgan;

yonilg‘i ta‘minot tizimidagi “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini ratsional rostdash orqali, statistik tahlil asosida dvigatel sovuq ishga tushirish jarayoni uchun benzin sarfiga mos siqilgan tabiiy gaz va zararli chiqindi gazlar miqdorini hisoblash formulasi takomillashtirilgan;

past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlarini inobatga olgan holda universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli avtomobil dvigatellarining “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini ratsional sozlangandagi energoekologik samaradorlikni baholash usuli takomillashtirilgan;

yonilg‘i ta‘minot tizimidagi “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini bazaviy va ratsional sozlangandagi dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi benzin sarflanish vaqtini aniqlash usuli, tashqi muhit haroratini inobatga olgan holda ekspluatatsion va stend sinov usullari yordamida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

universal yonilg‘i ta‘minot tizimli avtomobil dvigatellarni sovuq ishga tushirishda benzindan gazga ishonchli va turg‘un holatda o‘tish tamoyillari ishlab chiqildi;

ratsional o‘zgartirilgan “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruv algoritmi asosida dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi benzinda ishlash vaqti qisqartirildi;

dvigatelni sovuq ishga tushirishda benzinga nisbatan siqilgan tabiiy gaz va zararli chiqindi gazlar miqdorini aniqlash formulalari takomillashtirildi;

“benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruv sozlamalarini ratsional rostdash orqali dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi energoekologik samaradorlikni baholash usuli takomillashtirildi;

yonilg‘i ta‘minot tizimidagi “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini bazaviy va ratsional sozlangandagi dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi benzinning sarflanish vaqti usuli, tashqi muhit haroratini inobatga olgan holda ekspluatatsion va stend sinov usullari yordamida takomillashtirildi va ushbu boshqaruv sozlamalarini ratsional qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, matematik statistika usullari qo‘llanilganligi va olingan natijalar, real eksperimentlardan olingan natijalar bilan taqqoslash orqali asoslangan. Universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarining yonilg‘i ta‘minot tizimidagi “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvining ratsional rostdan olingan natijalar, real ekspluatatsiya sharoitlarida va stend sinovlarida o‘z tasdiqini topgan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarining “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruv algoritmining takomillashganligi, ularning bazaviy sozlamalarini ratsional rostdash asosida energetik va ekologik ko‘rsatkichlarni hisoblashning takomillashtirilgan usuli ishlab chiqilib, iqtisodiy samaradorlikka erishiladigan ekspluatatsiya sharoitlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarining “benzin-gaz” boshqaruv sozlamalarini tabiiy iqlim sharoitini hisobga olgan holda ratsional rostlash asosida sovuq ishga tushirish jarayonidagi yonilg‘i xarajatlarini tejash va zararli chiqindi gazlar miqdorini kamaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

“benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvining takomillashtirilgan algoritmi “Avtomarkaz GAZ” MChJ da tadbiq etilgan (“O‘zavtosanoat” AJ ning 2025-yil 18-iyul 17/07-25-1271-son ma‘lumotnomasi). Natijada, universal yonilg‘i ta‘minot tizimli 4-avlod gaz ballon uskunalari bilan jihozlangan avtomobillarining yillik 283 kun davomida bitta avtomobil uchun bir martalik sovuq ishga tushirishdagi benzin sarfi 5,43 litrgacha tejalishiga erishilgan;

statistik tahlil asosida dvigatel sovuq ishga tushirish jarayoni uchun benzin sarfiga mos siqilgan tabiiy gaz va zararli chiqindi gazlar miqdorini takomillashtirilgan hisoblash usuli “Avtomarkaz GAZ” MChJ da tadbiq etilgan (“O‘zavtosanoat” AJ ning 2025-yil 18-iyul 17/07-25-1271-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dvigatel bir martalik sovuq ishga tushirish jarayonida benzin sarfiga mos siqilgan tabiiy gaz ishlatilishi hisobiga 54,5% xarajatlar tejalib, zararli gazlar miqdori mos ravishda zararli chiqindi gazlar mos ravishda CO miqdorini 2,13 kg, CH miqdorini 0,31 kg, NO_x miqdorini 0,11 kg va CO₂ miqdorini 3,87 kg ga kamayishi aniqlandi kamayishiga erishilgan;

universal yonilg‘i ta‘minot tizimli gaz ballonli avtomobil dvigatellarining “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini ratsional sozlangandagi energoekologik samaradorlikni takomillashtirilgan baholash usuli “Avtomarkaz GAZ” MChJ da tadbiq etilgan (“O‘zavtosanoat” AJ ning 2025-yil 18-iyul 17/07-25-1271-son ma‘lumotnomasi). Natijada, past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlaridagi benzin tejalishi va zararli gazlar miqdori 20% dan 80% ga kamayishi aniqlanib, yillik benzin tejalish o‘rtacha 4018 kg benzin tejalishiga erishilgan;

yonilg‘i ta‘minot tizimidagi “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini bazaviy va ratsional sozlangandagi dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi benzinning sarflanish vaqti, tashqi muhit haroratini inobatga olgan holda ekspluatatsion va stend sinovlari yordamida aniqlash usullari “Avtomarkaz GAZ” MChJ da tadbiq etilgan (“O‘zavtosanoat” AJ ning 2025-yil 18-iyul 17/07-25-1271-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tashqi muhitning -10°C dan + 30°C oralig‘idagi ekspluatatsiya sharoitida dvigatelni sovuq ishga tushirish jarayoni uchun bazaviy va ratsional sozlanishdagi benzin sarflanish vaqtlarining farqi 2,19 dan 0,45 daqiqagacha farqlanishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma‘ruzalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, Shulardan, 7 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Universal yonilg'ı ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarining ekspluatatsiya jarayonlarini tahlil qilish”** deb nomlangan birinchi bobida gaz ballonli avtomobil dvigatellari yonilg'ı ta'minlash tizimlarining rivojlanish tahlili hamda gaz ballon uskunalarining (GBU) konstruksiyalarining takomillashuv jarayonlari bo'yicha umumiy fikr va tahlillar amalga oshirilgan. Gaz ballonli avtomobillarning (GBA) ekspluatatsiya jarayonlarini tahlil qilinib, ularning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish muammolari va ularni hal qilish yo'llari bayon etilgan. Shu bilan birga universal yonilg'ı ta'minot tizimli 3- va 4-avlod GBU bilan jihozlangan GBA “benzin-gaz/gaz-benzin” boshqaruv sozlamalarining, avtomobil ekspluatatsion ko'rsatkichlarga ta'siri tasniflangan.

Universal yonilg'ı ta'minot tizimli IV-avlod GBA dvigatellari sovuq ishga tushirish vaqtida dastlab benzin yonilg'isidan foydalanadi, gaz yonilg'isiga o'tishi “benzin-gaz” boshqaruv sozlamalarida o'rnatilgan harorat (dvigatel sovitish suyuqligi yoki reduktor harorati) va dvigatel tirsakli val aylanishlar chastotasi (TVACH) ko'rsatkichlariga bog'liq holatda o'zgaradi. Ushbu ko'rsatkichlar turli GBU ishlab chiqaruvchilar (STAG, Landi Renzo, BRC, Lovato, Tomasetto, Digitronic) tomonidan tavsiya etilgan bazaviy sozlamalaridagi harorat ko'rsatkichi 30°C dan 40°C gacha va TVACH 600 min⁻¹ (STAG firmasi misolida) qilib belgilangandir. Bu esa sovuq ishga tushirishda benzin sarfini oshiradi.



1-rasm. Universal yonilg'ı ta'minot tizimli 4 - avlod GBU:

1-gaz ballon idishi; 2-gaz klapni; 3-monometr; 4 - elektromagnitli gaz reduktori; 5 - benzin EBB; 6 - gaz EBB; 7-gaz injektori; 8 - yoqilg'ı turini almashtirgich; 9-gaz injektoriga gaz uzati quvuridagi bosim datchigi (MAP datchik); 10-gaz uzatish shtutseri; 11 - kislorod datchigi; 12 – kompyuter

Avtomobillarda siqilgan tabiiy gaz (STG) yonilg'isidan foydalanish neft yonilg'ilariga nisbatan nisbatan shahar ekologiyasi uchun juda samarali bo'lib, boshqa yonilg'ilardan yaqqol ustunlikka egadir (1-jadval).

1-jadval

Dvigatel yonilg'i turiga qarab zararli chiqindi gazlar miqdorining o'zgarishi tonnasiga

Yonilg'i	Zararli chiqindi gazlar, t/t yonilg'i				
	CO	HC	CO ₂	NO _x	Qurum
Benzin	0,60	0,100	3,2	0,040	0,020
Dizel yonilg'isi	0,10	0,030	2,81	0,040	0,480
SNG	0,20	0,023	2,94	0,012	0,003
STG	0,08	0,025	2,6	0,013	-


Universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBU barcha modellarining gaz elektron boshqaruv bloki (EBB) dasturiy sozlamalari umumiy bir-biriga o'xshash va asosiy parametrlarini o'zgartirishda bir xil funksiyalardan foydalaniladi.

Dissertatsiyaning **“Universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida gaz ballonli yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishning nazariy asoslari nazariy asoslari keltirilgan. Universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishning **“benzin-gaz/gaz-benzin”** boshqaruvining ratsional rostdashga asoslangan konsepsiyasining asosiy tamoillari ishlab chiqildi. Dvigatelni sovuq ishga tushirishda benzindan gazga o'tishida silindrlar barqaror ish rejimini saqlashi zarur ya'ni dvigatelning har qanday ish rejimi va yuklanishida quvvat hamda burovchi momenti bir-biriga mos holatda bo'lishi talab etiladi. Ushbu talablar asosida yonilg'i ta'minlash tizimidagi **“benzin-gaz/gaz-benzin”** boshqaruvining mavjud algoritmi takomillashtirilib, shunga muvofiq uning matematik modeli takomillashtirildi. 4-avlod GBU bilan jihozlangan avtomobil dvigatellarining past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida sovuq ishga tushirishdagi **“benzin-gaz/gaz-benzin”** ratsional rostdash asosida mavjud algoritmini (2-jadval) quyidagicha takomillashtiramiz (2-rasm).

2-jadval


V.I. Yeroxov tomonidan taklif etilgan 4-avlod GBAning samarali ishga tushirish algoritmi

Parametrlari	Sovitish suyuqligi harorati**	
	≤10 °C	>10 °C
Gaz ballon idishiga gaz to'ldirishdan oldin*	Benzinda ishga tushirish	Gazda ishga tushirish
	Gaz bilan ishlash rejimiga o'tish. Sovutish suyuqligi harorati 10°C dan yuqori va 100 s dan keyin.	
Gaz ballon idishiga gaz to'ldirishdan keyin*	Benzinda ishga tushirish	Benzinda ishga tushirish. Gaz uzatilish sifatiga moslashish tugaguniga qadar.
	Gaz bilan ishlash rejimiga o'tish. λ-regulyatsiyasi faollashtirilgandan so'ng, sovitish harorati 10°C dan yuqori va ishga tushirilgandan keyingi vaqt 100 s dan ortiq.	Gaz bilan ishlash rejimiga o'tish. λ-regulyatsiyasi faollashtirilgandan so'ng, lekin 540 s dan kechiktirmasdan.



2-rasm. GBAning sovuq ishga tushirishda benzindan gazga va gazdan benzina o'tish takomillashtirilgan algoritmi blok sxemasi

“Benzin-gaz” boshqaruvining matematik modeli gaz va benzin rejimlarini avtomatik tarzda almashtirishi uchun harorat, tirsakli val aylanish chastotasi parametrlarni hisobga oladi. Bu matematik model dvigatelning harorat va TVACH datchiklardan keladigan ma'lumotlarga asoslanib “benzin-gaz” yoni “gaz-benzin” rejimini o'zgartiradi va shunga muvofiq dvigalellarning ishlash samaradorligi o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Quyida ushbu matematik model blok-sxemasi keltirib o'tilgan (3-rasm).



3-rasm. Yonilg‘i ta‘minlash tizimidagi “benzin-gaz”/ “gaz-benzin” boshqaruvining matematik modelining blok-sxemasi

Avtomobillar ekspluatatsiyasida dvigatelning asosiy sifat ko‘rsatkichlardan biri yonilg‘i sarfi yoki uning tejamkorligi hisoblanadi. Dvigatel ish ko‘rsatkichlarini aniqlash, maxsus stendda belgilangan ish rejimlarida ($N_i = \text{const}$, $p_i = \text{const}$ va $n = \text{const}$), sinash vaqtidagi ma‘lum quvvat uchun sarflangan yonilg‘i miqdorlari o‘lchanadi. O‘lchash natijalari bo‘yicha har soatda kg hisobida sarf bo‘lgan yonilg‘i miqdori G_{yo} quyidagicha aniqlanadi:

$$G_{yo} = \frac{\Delta g}{\tau} \cdot 3,6 \text{ kg/soat}, \quad (1)$$

bu erda Δg – o‘lchangan yonilg‘i dozasi, g; τ – yonilg‘ining sarf vaqti, s.

IV-avlod GBU ega universal yonilg‘i ta‘minot tizimli avtomobil dvigatellarini ratsional rostlangan “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvini funksional ko‘rinishdagi matematik modeli asosida dvigatelni sovuq ishga tushirishdagi benzin sarfi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$G_{yo} = \begin{cases} \frac{\Delta g}{\tau_{benzinI}} \cdot 3,6 \text{ agar } T_s < 25^\circ\text{C}, n < 400 \text{ min}^{-1}; n > 7500 \text{ min}^{-1} \\ \frac{\Delta g}{\tau_{gaz}} \cdot 3,6 \text{ agar } T_s \geq 25^\circ\text{C}, 700 \text{ min}^{-1} < n \leq 750 \text{ min}^{-1} \end{cases} \quad (2)$$

Ushbu formuladan foydalanib turli harorat oralig'ida va "benzin-gaz"/"gaz-benzin" boshqaruvining bazaviy va ratsional sozlamalaridagi benzin miqdorini ($G_{(bazav.,rats.)}$) aniqlash formulasini quyidagicha takomillshtiramiz:

$$G_{(bazav.,rats.)} = G_{y0} \cdot \Delta\tau_{(bazav.rats.)}; \text{ kg} \quad (3)$$

Bu yerda: G_{y0} – soatlik benzin sarfi, kg/soat;

$\Delta\tau_{(bazav.rats.)}$ -benzin-gaz/gaz-benzin boshqaruvi bazaviy va ratsional rostlangan sozlamalaridagi benzindan gazga o'tish vaqtlarining farqi, soat.

Yuqorida keltirilgan matematik modelning GBAda qo'llanilishi, ularning ekologik ko'rsatkichlarini ham oshirishga xizmat qiladi. "Benzin-gaz" rejimining matematik model asosida rostlanishi, dvigatel ekspluatatsiyasidagi benzin sarfi tejaladiga va shunga muvofiq ZChG miqdorining ham kamayishiga olib keladi. IYoDda yonilg'i turi bo'yicha ZChGni hisoblash, yonilg'i sarfi va massaviy ZChGning umumiy balansiga asoslanadi:

$$Q_k = C_t \cdot K_k, \text{ g/kg} \quad (4)$$

bu erda Q_k – ZChG miqdori, g/kg;

C_t - yonilg'i sarfi (benzin, gaz, dizel yonilg'isi va boshqalar), kg;

K_k - k-komponentning solishtirma qiymat koeffitsienti. IV-avlod GBA dvigatellarini sovuq ishga tushirishda benzindan gazga o'tish davomida atmosferaga chiqadigan ZChG miqdori matematik modelga mos ravishda o'zgaradi ya'ni yonilg'i sarfi C_t ni (4) formuladagi sovuq ishga tushirish davomidagi benzin sarfi $G_{(bazav.,rats.)}$ ga almashtiramiz. Chunki bu qiymatlar bir-biriga mos bo'lib $G_{(bazav.,rats.)}$ ma'lum vaqt davomidagi va C_t umumiy yonilg'i aralashma massasidagi yonilg'i sarflarini bildiradi. Shunday qilib, "benzin-gaz" boshqaruvining matematik modeli asosida IYoDning soatlik ZChG miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$Q_{ZChG} = G_{(bazav.,rats.)} \cdot K_k \quad (5)$$

bu erda Q_{ZChG} – ZChG miqdori, kg;

$G_{(bazav.,rats.)}$ - sovuq ishga tushirishdagi benzin miqdori, kg;

K_k - k-komponentning solishtirma qiymat koeffitsienti.

Formulada keltirilgan $G_{(bazav.,rats.)}$ yuqorida keltirilgan matematik model (3-rasm) yordamida aniqlanadi. Universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellari sovuq ishga tushirishdagi benzin-gaz/gaz-benzin boshqaruvi sozlamalarining ratsional rostlanishiga ko'ra benzin sarfining o'zgarishi past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitiga bog'liqdir. k-komponentning solishtirma qiymat koeffitsienti (K_k), ma'lum miqdordagi benzinning alangalanishi natijasida chiqadigan zararli chiqindi gazlar miqdoriga ko'ra aniqlanadi. Ushbu koeffitsient qiymatlari dvigatel stend sinovlarida aniqlangan ko'rsatkichlar bo'yicha olinadi.

"Benzin-gaz" boshqaruvining matematik modeliga mos ravishda universal yonilg'i taminot tizimli GBA dvigatellarida zararli chiqindi gazlar konsentratsiyasining bazaviy sozlamalarga nisbatan ratsional rostlanishi hisobiga kamayishi nazariy hisob-kitoblar asosida prognoz qilish mumkin.

Gaz va benzinda ishlaydigan dvigatellarning stend sinovlari natijalari $\eta_i^{STG}/\eta_i^b = 1$ ekanligini ko'rsatadi. Bunda yonilg'ilarning belgilangan standart bo'yicha keltirilgan qiymatlari quyida ko'rsatilgan:

- benzin uchun (GOST R 51105-97): $H_u^b = 43,9$ MJ/kg; $\rho_b = 0,74$ kg/l;
- STG uchun (GOST 27577-2000): $H_u^{STG} = 34,7$ MJ/m³; $\rho_{STG} = 0,72$ kg/m³.

STG yonilg'isining benzin yonilg'isiga ekvivalenti quyidagicha topiladi:

$$\tau_b^{stg} = \frac{H_u^{STG}}{H_u^b \rho_b} = \frac{34,7}{43,9 \times 0,74} = 1,07 \text{ l/m}^3 \quad (6)$$

GBA yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish konsepsiyasi silindrlarda yonish jarayonining barqarorligini, ZChG ning past konsentratsiyasini ta'minlash va benzin yonilg'i sarfini kamaytirishning yangi yondashuvlariga asoslanadi.

Universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBAning "benzin-gaz" dasturiy sozlamalariga kiritiladigan ratsional o'zgartirishlar kiritish benzin sarfini kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan. "Benzin-gaz"/"gaz-benzin" boshqaruvining universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarini sovuq ishga tushirishdagi benzin sarfiga ($G_{(bazav.,rats.)}$) mos siqilgan tabiiy gaz (τ_b^{STG}) miqdorini aniqlashda, yuqorida keltirilgan (3) va (6) formulalaridan foydalanib quyidagicha empirik formula orqali ifodalaymiz:

$$\tau_b^{STG} = \frac{G_{(bazav.,rats.)} \cdot H_u^b}{H_u^{STG}}; m^3 \quad (7)$$

Bu yerda: $G_{(bazav.,rats.)}$ - GBA sovuq ishga tushirishda "benzin-gaz/gaz-benzin" boshqaruvini bazaviy sozlamalarga nisbatan ratsional roslashda tejalgan benzin miqdori, kg;

H_u^b - benzin yonilg'isining quyi yonish issiqligi, MDj/kg;

H_u^{STG} – STG yonilg'isining quyi yonish issiqligi, MDj/m³.

Dissertatsiyaning "**Gaz ballonli yengil avtomobillarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar**" deb nomlangan uchinchi bobida yuqoridagi boblarda olingan nazariy natijalarni tasdiqlash, ularga aniqlik kiritish, dissertatsiyada ko'tarilayotgan masalani kengroq va chuqurroq o'rganish maqsadida o'tkazilgan eksperiment tadqiqotlar natijalari yoritilgan.


Universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBU bilan jihozlangan gaz ballonli yengil avtomobillar dvigatelining sovuq ishga tushirilib avtomatik gaz yonilg'isiga o'tishini ekspluatatsiya sharoitini hisobga olgan holda bazaviy dasturiy sozlamalarga ratsional o'zgartirishlar kiritish orqali ularning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha ekspluatatsiya va stend sinovlarini o'tkazish dasturi ishlab chiqildi va o'tkazildi.

Ekspluatatsiya sinovlarini Jizzax shahridagi "Group mega avto" MCHJ, "C-laydo avtogaz servis" MCHJ va UzAuto Motors AJ hamkor servisi "Avtomarkaz Gaz" MCHJ hamda "Nipo standart" MCHJ qoshidagi kompleks sinov markazining "G'ildirakli va gusenitsali texnikalar va ishlab chiqarish uskunalari" laboratoriyasida o'tkazildi. Stend sinovlari Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga tegishli, maxsus o'lchov apparatlari bilan jihozlangan B15D2 dvigatel stendi va 5 komponentli gazoanalizator priborida amalga oshirildi.


Sinovlar universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarida 10 martadan o'tkaziladi va natijalari belgilangan jadvallarga kiritiladi.




4-rasm. IV-avlod GBU bilan jihozlangan GBA dvigateliga o'rnatilgan gaz elektron boshqaruv blokini diagnostika kabeli orqali noutbuk bilan ulash jarayoni



5-rasm. IV-avlod GBU bilan jihozlangan GBA dvigateliga o'rnatilgan Stag 200 Easy 0.27.0 dasturining bazaviy sozlamalari oynasi



6-rasm. IV-avlod GBU bilan jihozlangan GBA dvigateliga o'rnatilgan Stag 200 Easy 0.27.0 dasturining bazaviy sozlamalariga kiritilgan ratsionil o'zgarishlar oynasi



7-rasm. Universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobillarning sovuq ishga tushirilishida benzin-gaz/gaz-benzin boshqaruvi bazaviy va ratsionil rostlashdagi o'rtacha benzinda ishlash vaqtlari

Yuqori va past haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida universal yonilg‘i ta‘minot tizimli IV-avlod gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarini sovuq ishga tushirishdagi benzin sarflanish vaqtining, benzin-gaz/gaz-benzin boshqaruvi bazaviy va ratsional rostlangandagi farqi $\Delta\tau_{(bazav/rats)}$, min.

Dvigatel sovuq ishga tushirishdagi benzin sarfining, benzin-gaz/benzin-gaz boshqaruvi bazaviy sozlamalarga nisbatan ratsional rostlashdagi benzin sarflanish vaqtining o‘zgarishi ($\Delta\tau_{bazav.rats.}$), min.	Past haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida havo harorati, °C										
	-10	-9	-8	-7	-6	-5	-4	-3	-2	-1	0
	2,19	2,04	2,01	1,87	1,84	1,86	1,24	0,91	0,90	0,80	0,87
	Past haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida havo harorati, °C										
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
	0,78	0,84	0,76	0,75	0,71	0,78	0,80	0,90	0,87	0,77	
	Past haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida havo harorati, °C										
	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	
	0,87	0,91	0,85	0,92	0,94	0,95	0,95	0,92	0,97	0,99	
	Yuqori va past haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida havo harorati, °C										
	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	
	0,99	0,97	0,96	0,97	1,00	0,84	0,76	0,61	0,51	0,45	

Yuqoridagi jadval asosida universal yonilg‘i ta‘minot tizimli IV-avlod gaz ballonli yengil avtomobil dvigatel sovuq ishga tushirishdagi benzin-gaz/gaz-benzin boshqaruvi bazaviy va ratsional rostlangan sozlamalaridagi benzindan gazga o‘tish vaqtlarining farqi ($\Delta\tau_{bazav.rats.}$) aniqlanadi. $\Delta\tau_{(bazav/rats)}$ – tashqi muhit haroratini hisobga olgan holda “benzin-gaz”/“gaz-benzin” boshqaruvining bazaviy yoki ratsional sozlangandagi benzinda ishlash vaqti. Ushbu formuladagi $\Delta\tau_{(bazav/rats)}$ qiymati quyidagi ketma ketlikda aniqlanadi:

$$\Delta\tau_{(bazav/rats)} = \tau_{bazav.} - \tau_{rats.} \quad (8)$$

$\tau_{bazav.}$ va $\tau_{rats.}$ qiymatlari statistik tahlil natijalari asosida keltirilgan koeffitsientlar yordamida quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau_{bazav.} = -0,1621T_a + 4,9056 \quad (9)$$

$$\tau_{rats.} = -0,1398T_a + 3,6616 \quad (10)$$

Bu yerda T_a -atrof-muhit harorati.



8-rasm. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga tegishli, maxsus o‘lchov apparatlari bilan jihozlangan B15D2 dvigatel FDJ 001 induktiv tormozlash stendi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, B15D2 dvigatel stendida sovuq ishga tushirishda yonilg‘i sarfini aniqlash jarayoni, dvigatel o‘t oldirishdan boshlab hisobga olinadi.

Ushbu sinov jarayoni ikkinchi bosqich sinovi bilan birga amalga oshiriladi. Aynan, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetiga tegishli,

maxsus o'lov apparatlari bilan jihozlangan B15D2 dvigatel-FDJ 001 induktiv tormozlash standining Horiba (MEXA-584L) gazanalizator pribori (9-rasm) yordamida, sarflangan yonilg'i miqdoriga mos ZCHG ko'rsatkichlari ham aniqlandi.



9-rasm. Horiba (MEXA-584L) gazanalizator pribori


Ushbu gazanalizator pribori yordamida dvigatelni sovuq ishga tushirishda benzin-havo aralashmasi tarkibidagi ZCHG (CO, CH va CO₂) miqdori aniqlanadi. Bunda umumiy yonilg'i-havo aralashmasining alanganishi va chiqindi gazlar tarkibidagi CO, CH va CO₂ larning miqdori foizlarda ifodlanadi, hamda ushbu pribor monitorida ko'rsatiladi. Dvigatel ishga tushirilishi bilan gazanalizator ham ishlay boshlaydi va ZCHG miqdorini benzin sarfiga mos ravishda aniqlashimiz mumkindir. Ya'ni dvigatelning ishlashida sarflanadigan benzin dozasining o'zgarishi, ZCHG miqdoriga ta'sir ko'rsatadi, shundan kelib chiqib sinov jarayonida aniqlangan har bir benzin sarfiga mos holatda aniqlangan ZCHG miqdorini ham umumiy qilib jadvalga kiritamiz (4-jadval).

4-jadval

Universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBA dvigatelining sovuq ishga tushirishdagi benzin yonilg'i sarfiga mos zararli chiqindi gazlar miqdori, kg/soat yonilg'i sarfiga nisbatan

Sinovlar soni	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	K_k
Yonilg'i sarfi - Δg , kg/soat	0,65	0,54	0,61	0,69	0,66	0,59	0,71	0,68	0,65	0,60	0,68
CO, %	0,10	0,09	0,09	0,13	0,10	0,09	0,14	0,12	0,10	0,09	0,105
HC, mln ⁻¹	49	38	36	48	43	37	49	48	49	41	43,8
CO ₂ , %	3,38	3,18	3,24	4,06	3,74	3,19	4,11	4,06	4,03	3,22	3,62

Yuqorida keltirilgan 2-jadvaldan foydalanib ya'ni ushbu jadvaldagi sovuq ishga tushirishdagi benzinning sarflanish vaqti asosida universal yonilg'i ta'minot tizimli gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarining benzin yonilg'i sarfini aniqlaymiz, bu (3) formula bo'yicha aniqlandi. $\Delta\tau_{bazav.rats.}$ qiymatlari (3-rasm) va G_{yo} qiymatlari 4-jadvallar orqali $G_{(bazav.,rats.)}$ aniqlanadi (10-rasm).



10-rasm. Yuqori va past haroratli ekspluatatsiya sharoitlarida (-10°C dan 30°C gacha) universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod gaz ballonli yengil avtomobillarning sovuq ishga tushirilishida benzin-gaz/gaz-benzin boshqaruvi ratsional rostdashdagi o'rtacha benzin sarfi ($G_{(bazav.rats.)}$) grafigining regression tahlil natijalari, kg

Universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBA dvigatelini bir martalik sovuq ishga tushirishdagi "gaz-benzin" boshqaruvi sozlamalarni bazaviy rostdashga nisbatan ratsional rostdashidagi yillik o'rtacha benzining tejalishi, o'rganilayotgan hududning yillik past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlariga bog'liq hisoblanadi. Yil fasllari bo'yicha ma'lum haroratli kunlarning taqsimlanishi yuqoridagi boblarda keltirilgan edi. Shunga mos holatda O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya agentligi ma'lumotlari asosida respublikamiz hududida yil fasllarining davomiyligi tahlil qilindi. Tadqiq etilyotgan past va yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitlaridagi (-10°C dan 30°C gacha) kunlarning yillik o'rtacha taqsimlanishini 283 kunni tashkil etmoqda.

Shu vaqt oralig'idagi universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBA bir martalik sovuq ishga tushirishida "benzin-gaz/gaz-benzin" boshqaruvi bazaviy sozlamalariga nisbatan ratsional rostdashidagi benzinning tejalishi 4,018 kg ni tashkil etmoqda (5-jadval).

5-jadval

Universal yonilg'i ta'minot tizimli IV-avlod GBA dvigatelining bir martalik sovuq ishga tushirishidagi 283 kunlik "benzin-gaz/gaz-benzin" boshqaruvi sozlamalarining bazaviy rostdashiga nisbatan ratsional rostdashidagi benzinning tejalishi, kg

Fasl	Harorat ko'rsatkichi, °C	Davomiyligi (kun)	Belgilangan harorat oralig'idagi o'rtacha benzinning tejalishi, kg	Umumiy benzin tejamkorligi ($\Delta G_{yo(b)}$), kg
Bahor	5°C dan 25°C gacha	62	0,0081	0,5022
Yoz	25°C dan yuqori	28	0,0094	0,2632
Kuz	5°C dan 20°C gacha	70	0,0094	0,658
Qish	4°C dan past	123	0,0211	2,5953
Jami				4,0187

Ekperiment sinov jarayonida benzin sarfi kilogrammda aniqlangan va uni litrga o'tkazishimiz uchun GOST R 51105-97 bo'yicha aniqlangan $\rho_b - 0,74$ kg/l zichligidan foydalanamiz.

